Saparbayeva Gulandam Masharipovna (Urganch davlat universteti dotsenti),
Yo‘ldasheva Fazilat Olimjonovna (Ranch texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi)

KIRITMA KONSTRUKSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA SEMANTIK-STILISTIK FUNKSIYALARIGA KO‘RA TURLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tilimizdagi kiritma deb nomlangan konstruksiyalarning o‘rganilish tarixi, qaysi olimlarning konstruksiyalar haqida o‘rganganligi, ularning semantik-strukturaviy turlari haqida ma’lumotlar Abdulla Qodiriyning asarlaridan parchalar bilan birgalikda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kiritma konstruksiya, kiritma so‘z, kiritma gap, semantik-stilistik funksiya, izohlash-tushuntirish kiritmalari, aniqlashtirish chegaralash kiritmalari, ismlarga qo‘shimcha izoh beruvchi kiritmalar, sharxlovchi kiritmalar.*

Сапарбаева Гуландам (доцент Ургенчского государственного университета),
Юлдашева Фазилат Олимжоновна (преподаватель технологического университета Ранч)

ТИПЫ ВХОДНЫХ КОНСТРУКЦИЙ ПО ИХ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ОСНОВЕ И СМЫСЛОВЫМ СТИЛИСТИЧЕСКИМ ФУНКЦИЯМ

Аннотация. *В данной статье рассматривается история изучения конструкций, которые называются кондукторными конструкциями, исследуемыми учёными по всему миру на протяжении многих лет, а также дается некоторая информация о семантико-структурных типах с фрагментами рассказов Абдуллы Кадири.*

Ключевые слова: *вводное слова, проводник слова, вводное предложение, семантико-стилистическая функция, пояснительный проводник, разъяснение проводника, пояснительный проводник по именам, пояснительный проводник.*

Saparbaeva Gulandam (Docent of Urgench State University),
Yuldasheva Fazilat Olimzhonovna (Lecturer of Ranch Technological University)

TYPES OF DISCOURSE MARKERS ACCORDING TO THEIR THEORETICAL BASIS AND SEMANTIC-STYLISTIC FUNCTIONS

Annotation. *In this article, the history of the study of constructions which is called conductor constructions, scientists who are around the world have researched during the years, and some information has given about the semantic-structural types with fragments of the stories of Abdulla Qadiri.*

Key words: *Conductory structures, conductory words, introductory sentence, semantic stylistic function, explanatory conductory, clarification conductory, explanatory conductory on names, explanatory conductory.*

Kirish (Introduction). Kiritma konstruksiyalar bu gapda gap bo‘laklari bilan sintaktik bog‘lanmagan gap bo‘lagi vazifasini bajarmaydigan gapning mazmuniga so‘zlovchining turlicha munosabatini ifodalovchi konstruksiyalar hisoblanadi. Dastlab, kiritma konstruksiyalar og‘zaki, ya’ni so‘zlashuv nutqida paydo bo‘lib, hozirgi kunda adabiy tilning barcha barcha janrlarida keng qo‘llaniladi va funksional doirasi kengaygan. Rus tilidagi asarlarni tarjima qilish kiritma konstruksiyalarning o‘zbek tilida ommalashishiga katta hissa qo‘shdi. Yaqin yillargacha nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki turkologiyada ham kiritma konstruksiyalar maxsus o‘rganilmagan. So‘nggi yillardan boshlabgina bu konstruksiyalarni alohida nomlab kirish so‘z, so‘z birikmasi va kirish gaplardan farqlab o‘rganish g‘oyasi o‘rtaga tashlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Kiritma konstruksiyalarni alohida hodisa sifatida tahlil qilish ishlari o‘tgan asrning 40-yillaridan boshla muzokaralarga sabab bo‘la boshlagan lekin kiritma konstruksiyalar haqidagi boshlang‘ich fikrlarni rus olimlari M.V.Lomonosov, N.I.Grechlarning ishlarida kiritilgan [1;2-b.].

Faqat XX asr boshlarida yaratilgan grammatikalardagina [3,4,5] kirishlarning va ularga yondash sintakik hodisalarning gap bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bog‘liq bo‘lmagan hodisalar sifatida o‘rganila boshlanganini ko‘ramiz. Biroq bu ishlarda ham, yuqoridagi fikrlar birmuncha to‘ldirilgan bo‘lsa-da, kirish va kiritmalar bir-biridan farqlanmaydi.

Rus professori A.B.Shapiro kirish so‘z va kirish gap terminini umumiy ma’noda tushunmaslik kerakligini, ularni maxsus o‘rganish va kategoriyalash kerak degan g‘oyani ilgari surdi va o‘z asarida “вставные” deb nomladi [6].

O‘zbek tili sintaksisida birinchi marotaba professorlar A,G‘.G‘ulomov va M.Asqarovalar kiritmalarni kirishlardan farqini ko‘rsatib, ularni alohida kategoriyalarga ajratib,ularni alohida “kiritma gaplar”, “ki-

ritma so‘zlar”, “kiritma konstruksiyalar” atamalarini fanga kiritdi. Uning fikriga ko‘ra, kiritma konstruksiyalar asosiy gapga grammatik va sintaktik jihatdan bog‘lanmagan gapga qo‘shimcha so‘zlovchining fikrini bildirish uchun qo‘llaniladi [7].

Ba’zan kirish konstruksiyalarning gap strukturasidan butunlay tashqarida emasligi, gap mazmuniga halal yetkazmagan holda tushurib qoldirishning qiyinligi – asosiy gap va gap bo‘laklari bilan bog‘lanishi, gapning tarkibiy qismi hisoblanishi, biroq bu bog‘lanish grammatik jihatdan emas, balki kirishlarning o‘rinlashishi va funksiyasi bilan bog‘liq intonatsion yoki logik xarakterdagi bog‘liqlikdan boshqa narsa emasligi, haqida gapiriladi. Tilshunos olim A.I.Anikinning adabiyotida kirish va kiritma konstruksiyalarning asosiy gap bo‘lagiga aloqador emasligi, grammatik munosabat xarakter jihatdan teng aloqaga ham, tobe aloqa turlariga ham kirmasligini, gap bo‘laklariga xos xususiyatlarga ega emasligi, gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari kabi ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmasligi to‘g‘risida fikrlar bildirilgan [8]. Gap bo‘laklariga qo‘yilgan talablarni kiritma konstruksiyalar uchun qo‘llab bo‘lmaydi. Ular gapda alohida mustaqil sintagma sifatida qatnashadi, kiritma konstruksiyalarning gapda aniq o‘rni bo‘lmaydi, gapda boshqa so‘zlar bilan birikmaydi, so‘z birikmasi va so‘z sintagmasini tashkil qila olmaydi. Kiritma konstruksiyalar mazmunan gapning faqat bir qismigagina taaluqli emas, balki butun gap, hatto bir matn mazmuniga aloqador bo‘ladi.

Kiritma konstruksiyalar mustaqil ohangga ega, asosiy gap ohangiga aloqador bo‘lmaydi. Ayniqsa, bu holat darak gap tuzilishida, so‘roq yoki undov gaplar tarkibida kiritmalarni ishlatilgan paytda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, kiritma konstruksiyalar asosiy gap tarkibiga ikkinchi shaxs tomonidan ham qo‘llanilishi – nutq egasiga aloqador bo‘lmasligi ham mumkin.

Kiritmalarning semantik-stilistik funksiyalariga ko‘ra, I.I.Shcheboleva [9], o‘z dissertatsiya ishida bu xususida ingliz va o‘zbek tillarida to‘xtalib o‘tgan. O‘zbek olimlardan A.G‘.G‘ulomov, M.Asqarovalar o‘zbek adabiy tili, Q.Nazarovning (10) “Kiritma gap va kiritma so‘z” deb nomlangan maqolasida kiritma konstruksiyalarning sabab, payt, shart, to‘siqsizlik ma’nolarining ifodalanishi ko‘rsatilib o‘tilgan. O‘zbek tilida kiritma konstruksiyalarning sabab, payt, xarakter-xususiyat, shart, to‘siqsizlik kabi ma’nolarni ifodalashi ayrim ishlarda ko‘rsatib o‘tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot doirasida tahlil va talqinning qiyosiy tipologik, germenevtik va diskurs analitik tahlildan foydalanilgan. Kiritma konstruksiyalar o‘zbek tilshunosligida matnga xos leksik birliklar sifatida sanalib, ularning sintaktik vazifasi borasida turli yondashuvlar mavjud. Aksariyat tadqiqotlarda diskurs belgilar sifatida sanalgan. Bu boradagi sintaktik-struktur tahlillar ushbu leksik birlik va birikmalarning turli so‘z turkumiga xos so‘zlardan iborat bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot kiritma konstruksiyalarga oid umumiy qarashlarga asos bo‘luvchi nazariyalarni qamrab oladi.

Tahlil va natijalar. I.Toshaliyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar” asarida [11] kiritma konstruksiyalarning semantik xususiyalari tasniflangan. I.Toshaliyev kiritma konstruksiyalarning semantik xususiyatlariga ko‘ra, quyidagi guruhlarga ajratgan.

1. Izohlash va tushuntirish tipidagi kiritmalar. Bu turdagi kiritmalar gapning kam qo‘llaniladigan va tushunishga qiyinroq bo‘lgan so‘z va iboralarni ma’nosini izohlashda qo‘llaniladi. Bu gapda arxaik so‘z xirojni ma’nosini izohlash uchun kiritmadan foydalanilgan. Masalan, “Toshkand hokimi bo‘lg‘an Azizbek Qo‘qang‘a qarshi bosh ko‘targan. Xon tomonidan xiroj (zakot, soliq) uchun yuborilg‘an devon beklarini o‘ldirgan” (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar) [12].

2. Aniqlash, chegaralash tipidagi kiritmalar. Bu turdagi kiritmalar gap tarkibidagi biror so‘zning semantik strukturasi, tallaffuzi, etimologiyasi bilan bog‘liq izohlarni ifodalaydi. So‘z ma’nosini aniqlashtiradi va chegaralaydi. Bu o‘rinda kiritma go‘dakni kim ekanini izohlash uchun ishlatilgan. Masalan: Musulmonqul o‘z g‘arazi yo‘lida orada yo‘q nizolarni qo‘zg‘ab, kuyovi Sheralixonni o‘ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo‘y kabi yuvvosh Toshkand hokimi Salimsoqbekni o‘ldirib, o‘rniga Azizbekdek zolimni belgiladi va o‘zini mingboshi deb e’lon qilib, aqlsiz bir go‘dakni (Xudoyorni) xon ko‘tarib el yelkasiga mindi (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar).

3. Ismlar haqida qo‘shimcha izoh beruvchi kiritmalar. Bu tipdagi kiritma konstruksiyalar nomlar, otoqli otlar va joy nomlarini matn yoki asarda birinchi marotaba qo‘llaganda izohlash uchun ishlatiladi. Masalan, Mohirabonudan ikki o‘g‘il va ikki qiz dunyog‘a kelib, to‘ng‘ichi Azimbek, undan keyingisi Xushro‘y (yoshlig‘ida Xushro‘y o‘rniga Xushra der edilar) uchinchisi Karimbek va to‘rtinchisi bizning Zaynab edi (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar).

4. Sharhlovchi kiritmalar. Asosan, bu turdagi kiritmalar gapdagi biror so ‘zning ma’nosini aniqlashtirish, qo‘shimcha ma’lumot berish uchun foydalaniladi. Masalan: ijobatni olgandan keyin yuqorida mazkur Toshkent ashroflari bir majlis qurib, o‘tirishga Normuhammad qushbegi (Toshkent hokimi)ni chaqirdilar (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar).

5. Sharhlash tipidagi kiritmalar. Bu turdagi kiritma konstruksiyalar gapdagi biror umumiyroq ma'lumot beruvchi so'zni ma'nosini aniqlashtirish, qo'shimcha, ma'lumot berish uchun ishlatiladi. Bu tipdagi kiritma konstruksiyalar misol uchun, masalan, kabi so'zlar bilan yaqqol ko'rinib turadi.

Masalan: O'rdaning tashqarig'i qismining uch tarafi (Janub, Sharq, G'arb) binosiz, faqat qo'rg'on devorlarining zinalari edi (A.Qodiriy. O'tkan kunlar)

6. Subyektiv-emotsional munosabat ifodalovchi kiritmalar. Bu turdagi kiritmalar muallifning o'quvchiga bo'lgan murojaati, his-tuyg'usi o'zi hikoya qilayotgan voqeaga bo'lgan shaxsiy fikrini ifodalaydi. Masalan: Toshkand tinchlangandan keyin (agar salomat bo'lsam) o'zim xabar yuborurman (A.Qodiriy. O'tkan kunlar).

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada kiritma konstruksiyalar bo'yicha dastlabki taqdidotlar, izlanishlar va ularning semantik tuzilshiga ko'ra turlari misollar bilan yoritilb borilgan, kiritma konstruksiyalar ustida dastlabki o'rganishlar va ularning fanga kirib kelishi, gapdagi o'rni va stilistik-semantik turlari haqida maqolada yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). М.В.Ломоносов. Российская грамматика. Спб.,1804, с. 435–437.

(2). Н.И.Греч. Практическая русская грамматика. Спб, 1827, р. 359–437.

(3). Овсянико-Куликовский Д.Н. Синтаксис русского языка. Изд. 2-е, Спб., 1912.

(4). Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. Изд 6-е, М., Учпедгиз, 1938.

(5). Пешковский А.М. Школьная и научная грамматика. Изд. 3-е, Берлин, Госиздат РСФСР, 1922.

(6). А.Б.Шапиро, С.И.Абакумова. Методика пунктуации. 1948, с. 63.

(7). G'ulomov A.G'., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II bob, sintaksis, G'.Abdurahmonov tahriri ostida, Toshkent, "O'qituvchi", 1965, 189–194-betlar.

(8). Аникин А.И. Вводные сочетания слов в современном русском языке (образованные на основе имен), "Ученые записки МГПИ", 1960.

(9). Щеболева И.И. Вставные конструкции в современном русском литературном языке. Автореф. дисс. канд.филол.наук, 1955, с. 15.

(10). Nazarov Q. Kiritma gap va kiritma so'z haqida. "O'qituvchi" gazetasi, 1964.

(11). Toshaliyev I. Hozirgi o'zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar. Toshkent, 1976.

(12). Abdulla Qodiriy. "O'tkan kunlar" asari.www.ziyouz.com, 2007.

Daminova Mashhura Zafar qizi (Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi; daminovamashhura8@gmail.com)

ILOVA KONSTRUKSIYADA SINTAKTIK BOG'LANISHNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ilova konsytuksiyalarning sintaktik bog'lanishning noan'anaviy turlari, ilovali elementlarning ketma-ket birikib kelishi, ilova hodisasi muammolari, ularning badiiy prozada bajarib keladigan stilistik funksiyalarini tadqiq qiladi. Quyida bayon qilingan «Ilovali konstruksiyalar» to'g'risidagi fikrlar ilmiy, nazariy ahamiyatga ega bo'lib, boshqa tilshunoslik fanlarining taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga egadir.*

Kalit so'zlar*: biriktiruvchi qo'shma gaplar, intonatsion xarakter, og'zaki nutq hodisasi, sintaktik munosabatlar, qo'shimcha komponent qurilishi, murakkab gap qismlari, qo'shma gap bo'laklari.*

ОСОБЕННОСТИ СИНТАКСИЧЕСКОЙ СВЯЗИ В КОНСТРУКЦИИ ПРИЛОЖЕНИЯ

Аннотация*. В данной статье приложение изучает нетрадиционные типы синтаксической связи конструкций, последовательное спряжение элементов аппликации, проблемы феномена аппликации, их стилистические функции, которые они выполняют в художественной прозе. Мнения по «Прикладным конструкциям», как описано ниже, имеют научное, теоретическое значение и важны для прогресса других лингвистических дисциплин.*

Ключевые слова: *соединительные сложные предложения, интонационный характер, явление устной речи, синтаксические отношения, аддитивная компонентная конструкция, части сложного предложения, фрагменты сложного предложения.*

CHARACTERISTICS OF SYNTACTIC CONNECTION IN APPENDIX CONSTRUCTION

Annotation. *In this article, the application studies the non-traditional types of syntactic linkage of concytuxies, sequential conjugation of application constructions, the sequential joining of the application elements, problems of the application phenomenon, their stylistic functions that they perform in artistic prose. The opinions on «Applied constructions» as described below are of scientific, theoretical importance and important for the progress of other linguistic disciplines.*